

**ISLOM ABDUG`ANIYEVICH KARIMOVNING AJDODLAR MEROSINI
TIKLASH BORASIDAGI XIZMATLARI**

Jumayeva N.A.

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası katta o`qituvchisi

Fayzulloyeva A. Z.

BuxDU 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada istiqlol yillarida muhtaram Yurtboshimiz I.A.Karimov rahnamoligida bu buyuk zotlardan qanchadan-qanchalarining hayoti va asarlari ilmiy asosda o`rganilib, keng ommaga yetkazilganligi, ularning tabarruk nomlari tiklanib, abadiy orom topgan maqbaralari obod qilinganligi hamda muborak ziyoratgohlarga aylantirilganligi shu bilan birga, bu sohada qilinadigan ishlarimiz hali ko`pligi ham alohida e`tirof etib o`tilgan. Shuningdek, tarixiy xotirasiz kelajak yo`qligi va biz dunyo tan olgan buyuk zotlarning avlodi ekanligimiz ta`kidlangan.

**Kalit so`zi:** tarixiy xotira, tarixiy meros, O`zbekistonning yangi tarixi, madaniy meros, tarixiy shaxs, adabiy-badiiy muhit, qo`lyozma, yubiley.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida tarixiy xotira va tarixiy merosni tiklash masalalari yoritilishi ijtimoiy-gumanitar soha olimlarining doimiy diqqat markazida turgan va mazkur mavzuni ilmiy jihatdan o`rganish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan.

O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov har bir o`zbek farzandi «mening ajdodlarim kimlar bo`lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan» degan savollarni o`ziga-o`zi berishi kerakligini qayta-qayta uqtiradi. Bu masalada «O`zbekistonning, o`zbek xalqining bugun keng ommaga etkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratildimi-yo`qmi?»¹ degan zaruriy savolni beradi va Sho`rolar davrida, o`zgalar yozib bergan soxta g`oyalar asosidagi tarixni qayta ko`rib chiqish lozimligini ta`kidlaydi. Yangidan shakllanayotgan mustaqil O`zbekiston davlati boshida turgan inson sifatida Birinchi Prezidentimiz bu ishga jonini, borlig`ini berishga tayyorligini ta`kidlaydi. Bu masalaning echimini nafaqat Prezident, balki butun xalq bilishni istayotganligini aytadi.

Shundan kelib chiqqan holda O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida tarixiy xotira va tarixiy merosni tiklash masalalari yoritilishi Respublika miqyosida o`tkazilgan bir qator ilmiy amaliy konferenstiya materiallari

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т., Шарқ. 1998.

va bir qator ijtimoiy-gumanitar soha olimlarining ilmiy izlanishlarida yoritib o'tilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab "Ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferenstiyasi, N.Jo'raev, T.Fayzullaevlarning "Mustaqil O'zbekiston tarixi", S.H.Nosirho'jaev, M.F.Lafasov, M.Z.Zaripov "Ma'naviyat asoslari" o'quv qo'llanmasi kabi asarlar bilan bir qatorda internet sahifalarida hamda Narzulla Jo'raev, Nazira Abduazizova, Xolmurod Xidirov, Davron Muitov, Abdusalom Umarov, Bobokatta Shodiev, Dilorom Hikmatova, Qiyomiddin Nazarov kabi bir qator olimlar asarlarida ham mavzuga oid bir qator ishlar amalga oshirilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O'zbekistonning yangi tarixi markazi Prezident Islom Karimov asarlari biografiyasi tuzib chiqilgan. Ammo yuqorida bajarilgan ishlar mavzuni to'liq ochib berishga etarli emas. Bugunni kunda Prezident I.A.Karimov asarlarida tarixiy xotira va meros masalalari yoritilgan qismlarini xalq ommasiga tushunarli tarzda etkazish dolzarb vazifalardan biridir². Mamlakatimizda, o'tmish avlodlarimizning madaniy merosini asos qilib olgan holda, ma'naviy yangilanish sari sobitqadamlik bilan borayotganligimizning boisi sifatida bugungi kunda buyuk davltimiz poydevorini qurishda Muxammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, al-Buxoriy, at-Termiziy, al-Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimizning bebaho merosi katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, ularning g'oyalari, qarashlari mustaqil O'zbekistonning milliy mafkurasini shakllantirishda beqiyos muhimdir. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida tarixiy xotira va tarixiy merosni tiklash masalalari yoritilishi asosida tarixiy xotira va merosning mustaqillikni mustahkamlash sohasidagi o'rnini belgilash va bu mavzuga doir barcha asarlarni tahlil qilib, olingan xulosalarni yagona tizimga birlashtirish hamda alohida qo'llanma sifatida chop etish orqali tarixiy xotira va merosni tiklashning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirishdan iborat.

Tarixiy xotira va merosning mustaqillikni mustahkamlash sohasidagi o'rni:

-Biz yurtimizning ulug' farzandlari, buyuk siymolarining nomlarini fahru iftihar bilan tilga olishga, tavalludlarini umumxalq tantanasi sifatida keng nishonlashga, ularning asarlarini ona tilimizda chop etib, xalqimiz ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun qulay imkoniyatlarni yaratish;

- Tarixiy yodgorliklarni tiklash va tarixiy shaxslar xotirasini abadiylashtirish masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni o'rganish;

² I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch" 2008y

- Milliy urf-odat, an'ana va diniy kadriyatlarnnnng sovetlar xukmronligi yillarida O'zbekiston miqyosidagi ahvolini ko'rsatish va qiyosiy tahlil etish;

- tarixiy xotira va tarixiy merosni tiklash masalalari yoritilishi orqali O'zbekiston haqqoniy tarixini yaratishning nazariy va amaliy masalalarini yoritish.

O'rganilgan manbalar tahlili natijasida chiqarilgan xulosalar va takliflardan mustaqillik sharoitida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida tarixiy xotira va tarixiy merosni tiklash masalalari yoritilishi orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ko'maklashadigan tavsiyalar berish.

Tarixiy xotira va merosni tiklashning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirishda, universitet, akademik listey va kasb hunar kollejlari O'zbekiston tarixining ayni shu mavzuni yoritishda qo'shimcha ma'lumot sifatida, shuningdek, maxsus ixtisoslashgan maktablarda, maxsus kurslarda, darslik va qo'llanmalar tayyorlashda, O'zbekiston tarixi kabi fundamental asarlarini yozishda manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlaridagi tarixiy xotira va merosni tiklash masalalari xronologik jihatdan tahlil qilib yoritildi. Undan tashkari Allomalar yubileylari utkazilishining xukukiy asoslari tiklandi. O'zbekistonning yaqin o'tmishidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning yoritilishi, Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida buyuk sarkarda sohibqiron A.Temur siymosiga munosabat, tarixiy yodgorliklarni tiklash va tarixiy shaxslar xotirasini abadiylashtirish masalalari, Prezident asarlaridagi tarixiy, mantiqiy tahlil asosida yoritib berilgan. Ma'lumki, sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda tarixiy xotira va tarixiy meros hamda madaniy-ma'naviy taraqqiyotning barcha jarayonlarida kommunistik partiya mafkurasi hukmronligi ta'minlanib «buyuk davlatchilik» siyosati joriy qilib borildi. Ushbu siyosat iqtisodiy va madaniy – ma'naviy va xalq ta'limi tizimi, adabiy-badiiy muhit, milliy san'at masalalari shu bilan bir qatorda madaniy-oqartuv muassasalar tizimida ham to'la o'z aksini topdi. Madaniy - ma'naviy sohaga, asosan, mafkuraviy ta'sir o'tkazishning muhim vositasi deb qaralgan ma'muriy buyruqbozlik tuzumi sharoitida sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, xalq maorifi, milliy kadrlar tayyorlash, adabiy-badiiy muhit, madaniy-oqartuv muassasalari va milliy qadriyatlar masalasida jiddiy tanazzul yuz berdi. O'quvchi yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish vazifasi etibordan chetda qoldirildi. Ta'lim tizimida milliy g'oyalarning inkor etilganligi, tarbiya muassasalarida hur fikrlilik va erkinlikning mavjud bo'lmaganligi oqibatida ta'lim-tarbiya samaradorligi darajasi pasayib bordi. Madaniyat sohasi, jumladan, xalq ta'limi, madaniy-oqartuv muassasalarining bir yoqlama rivojlantirilishi, rejalashtirishdagi nuqsonlar, boshqaruv va xo'jalik yuritishdagi ma'muriy-mafkuraviy usullar hamda madaniy muassasalar ishini o'zbek xalqi milliy xususiyatlariga yot bo'lgan g'oyalar asosida tashkil etilishi,

O'zbekistonda madaniy sohasining rivojiga to'sqinlik qildi. Bugungi qunda yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish masalasi o'ta dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilayotgan ekan, bunda farzandlarimizning nainki jismoniy, shu bilan birga, axloqiy va ma'naviy barkamol bo'lishi zarurligi alohida ta'kidlanayotganini unutmasligimiz zarur. Chunki qalb ko'zi ochiq, ma'naviy tomondan baquvvat odamgina jamiyat talablariga ongli munosabatda bo'la oladi, bugun biz intilayotgan buyuk kelajakni barpo etishga, dunyo maydonida boshkalar bilan barcha sohalarda musobaqaga kirishga qodir bo'ladi. Bunga esa milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va tarixiy merosni tiklash hamda yoshlar ongiga singdirish orqali erishish mumkin. Prezident I.A.Karimov asarlarida tarixiy xotira va tarixiy merosni tiklash masalalari etarlicha yoritilgan va jamiyatnig ma'naviy rivoji uchun zarur ekanligi ta'kidlangan. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2013 yil 9-may kuni xotira maydonida jurnalistlar bilan bo'lib o'tgan suhbatda tarixiy xotira tushunchasiga har tomonlama ilmiy va hayotiy asosda yana bir bor ta'rif berdi. "Tarixiy xotira –bu umr mazmunini, avlodlar o'rtasidagi vorislik tuyg'usini, ularning bir-biriga daxldor ekanini, hayotning bamisoli uzviy halqalar kabi ketma-ket bog'lanishini anglash, tarixdan xulosa chiqarib, bugungi kun uchun to'g'ri yo'l tanlash, ota-bobolarimizning ruhi poklariga hurmat bilan qarash, milliy qadriyat va an'analarimizni toptashga yo'l qo'ymaslik, ularni ko'z qorachig'idek asrash demakdir»³ deb ta'kidlab o'tdi va bu so'zlar o'z navbatida mavzuning dolzarblik jihatini yana bir karra tasdiqlaydi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan boy tariximizni tiklash borasida amalga oshirilgan ayrim tadbirlardan quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- 1998 yil iyul – Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi. Aynan shu qarorga ko'ra, Ya.G'ulomov nomidagi O'zbek davlatchiligi tarixi an'anaviy ilmiy anjumani tashkil etildi va bu anjumanda tariximizning ko'plab o'rganilmagan sahifalariga aniqlik kiritilmoqda;
- 1991 yil Alisher Navoiy 550 yiligi;
- 1993 yil Ahmad Yassaviy 950 yilligi;
- 1993 yil sentyabr oyida Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi nishonlandi.
- 1994 yil Zahiriddin Muhammad Bobur 510 yilligi;
- 1995 yil noyabr oyida Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubroning 850 yilligi nishonlandi.

³ "Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o'rni" mavzuidagi xalqaro ilmiy konferenstiya materiallari. Samarqand, 1998

1998 yil oktyabr oyida Imom al-Buxoriyning hijriy taqvim bo'yicha 1225 yilligi nishonlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 dekabrda qaroriga muvofiq 2000 yilda allomaning (Moturudiy) 1130 yillik tavallud sanasi nishonlanishi munosabati bilan bir guruh olimlar Chokardiza qabristonida qazishmalar olib bordi. Bu izlanish natijasida Chokardiza qabristonining umumiy maydoni 4,5 gektar, madaniy qatlamining qalinligi 6-7 metrga etishi aniqlandi. Tadqiqotlar davomida Moturudiy qabri yonida XI asrda bunyod qilingan va keyingi asrlarda qayta qurilgan masjid poydevori topildi. Shu poydevor asosida ulug' allomaning qabri aniqlandi.

2003 yil noyabr oyida Abduxoliq G'ijduvoniyni 900 yilligi nishonlandi.

2003 yil 27 dekabr kuni O'zbekiston musulmonlari idorasining 60 yilligi nishonlandi.

2004 yil dekabr oyida Hoja Ahror Valiyni 600 yilligi nishonlandi. 2003 yil 17 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Imom Buxoriy yodgorlik majmuini asrab-avaylash va yanada obodonlashtirish, alloma merosini o'rganish va targ'ib qilish ishlarini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi.

2004 yil 27 may kuni Vazirlar Mahkamasining "Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

2008 yil 23 may kuni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Imom Buxoriy xalqaro markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi.

- 1999 yil 9 mayda – Xotira va qadrlash kuni ilk bor nishonlandi.
- 1999 yil 22 iyulda – «Shahidlar xotirasi» xayriya jamg'armasi tuzildi;
- 2000 yil 12 mayda – «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui ochildi;
- 2001 yil 31 avgust – Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni deb e'lon qilindi va 2002 yil 31 avgustda «Qatag'on qurbonlari xotirasi» mezeyi tashkil topdi.

Mustaqillik davri tom ma'noda hazrati Temurning qayta tug'ilish davri bo'ldi. U bobokalonimizning vasiyatlarining ro'yobga chiqayotgani bilan alohida qimmatlidir. Amir Temurga munosabat, uning tarixiy xizmatini munosib baholash va izzatini o'rniga qo'yish xususida gapirar ekanmiz, bu masala bizga nima uchun kerak, degan savol tug'iladi.

Birinchidan, Amir Temur qadriyati mustamlakachilik yillarida ongu shuurimizdan o'chirib tashlangan milliy tuyg'ularimizni qayta tiklash, millatni millat, davlatni davlat qilish uchun, tafakkur va tushunchalarimizdagi parokandalikka barham berib, milliy zamin va milliy haqqi-hurmati uchun birlashishimiz kerak, uning beqiyos faoliyati va o'lmas merosi xalqimizning milliy tuyg'usini, buyuk va

jahonshumul an'analariga voris ekanligini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqimizning milliy g'ururini, milliy ongini yuksaltirish uchun qariyb unutilgan tariximizni qayta tiklash lozim. Amir Temur esa shu ko'hna tarixning buyuk cho'qqisidir. Uchinchidan, farzandlarimizni, kelgusi avlodlarimizning nomi va merosi bilan faxrlanishga o'rgatish, ularni ana shu buyuk an'analarning munosib davomchilari qilib tarbiyalash, milliy g'ururini yuksaltirish uchun kerak. Shu ma'noda sohibqironning: «Aziz-avliyolar, sahobalar maqbaralarini, qutlug' qadamjolarni ziyorat etmoqni ham farz, ham qarz deb bilur edim», degan gaplari bugungi kunda yurtimizda ulug' ajdodlarga, olimu fozil bobolarimizga munosabatimizning tarixiy uyg'unligini ko'rsatib turibdi.

To'rtinchidan, Amir Temur qadriyati bizga demokratik, huquqiy, qudratli O'zbekiston davlatini barpo etish uchun, «O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat» degan g'oyani ro'yobga chiqarish uchun kerak. Yangi jamiyat, yangi hayot, yangi tafakkur, qolaversa, butun davlatchilikasoslarini qayta tiklayotgan bir paytda Amir Temur o'zbek xalqiga tog'day tayanch bo'lib xizmat qiladi, uning olijanob ishlarigabeqiyos safarbarlik ruhi baxsh etadi.

Beshinchidan, bu benazir qadriyat mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak. Darhaqiqat, hazrati Temur: «Kuch-qudratimizga shak-shubhangiz bo'lsa, biz qurgan binolarga boqing», degan edi. Bugun esa, o'tish davrining eng qiyin bir paytida O'zbekiston ulkan qurilish maydaniga aylanganini ulug' bobomiz boshlagan an'analarning davomi, ezgu orzularining ro'yobi, deyish mumkin. Keyingi yillarda yuzlab yangi binolar, zavod va fabrikalar, yo'llar va ko'priklar, ko'rkam maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari, shifoxonalar, ta'lim maskanlari, milliy shakl va mazmunga ega.

Birinchi Prezidentimizning mamlakat Parlamenti, Vazirlar Mahkamasi yig'ilishlari, viloyat kengashlari sessiyalarida ishtirok etishi, mamlakat hayotining eng muhim dolzarb masalalari yuzasidan ochiq fikr almashuvi temurona demokratiyaning yangi shakldagi ko'rinishidir.

Muqaddas qadamjo – Amir Temur maqbarasi ta'mirlandi. Juda qisqa fursatda, bobokalonimizning dunyoviy sha'ni va shavkatiga mos keladigan Temuriylar muzeyi qurildi. 1996 yilning bahorida YuNESKO doirasida Parijda o'tkazilgan xalqaro tadbirlar jahon madaniy hayotida muhim va yorqin voqea sifatida baholandi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Sohibqiron yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanda aytganidek: «Yurtimizga Amir Temur bosh bo'lgan yillarda siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida qo'lga kiritgan yutuqlar bo'm-bo'sh, huvillagan joyda yuzaga kelmagan. Balki shu makonda qadimdan rivojlanib, shakllanib kelgan tarixiy-madaniy an'alar asosida qaror topgan. Taraqqiyotiga nechog'lik katta hissa qo'shganini yana bir bor yorqin ifoda

etdi. Inson ma'naviy olamini kashf etadigan, uning tafakkur qudratini namoyon etadigan vositalar borki bular so'z san'ati, badiiy adabiyot, ilmu fandir. Shu o'rinda mamlakatimizda Toshkent va Navoiy shaharlarida Alisher Navoiy, Farg'ona shahrida Ahmad Farg'oniy, Urganchda Muhammad Muso Xorazmiy, poytaxtimizda Mirzo Ulug'bek, G'ofur G'ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya singari olimlar va adiblarimizga haykallar o'rnatilishi, qator yozuvchilarimizning Vatanimizning eng yuksak mukofoti bo'lgan "O'zbekiston Qahramoni" va Davlatimizning boshqa yuksak unvonlariga sazovor bo'layotganligi istiqlool yillarida o'zbek ilm-fani va adabiyotiga berilayotgan yuksak e'tibor namunasidir.

Biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi tabiiyki shu xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon miqyosida buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom ko'rsatilib, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligi barchamizni quvontiradi. Shu o'rinda Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy xotirasiga hurmat sifatida muazzam haykallarning o'rnatilishi har bir Vatandoshimiz qalbida cheksiz iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.

Xulosa: Istiqlool tufayli biz yurtimizning ulug' farzandlari, buyuk siymolarining nomlarini fahru iftihor bilan tilga olishga, tavalludlarini umumxalq tantanasi sifatida keng nishonlashga, ularning asarlarini ona tilimizda chop etib, xalqimiz ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun qulay imkoniyatlarga ega bo'lmoqdamiz. Shuningdek, mustaqillik sobiq ijtimoiy-siyosiy tuzum hukmronlik qilgan yillardagi xalqimiz tarixiga, madaniyatiga biryoqlama yondoshishdek ijtimoiy illatdan ongimizni holi etdi.

Mustaqillik bizning milliy, maonaviy ildizlarimiz naqadar teran, naqadar baquvvat ekanligini ochiq-oydin ko'rsatib berdi. "Biz - deydi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, - boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ammo bugungi ayrim saltanatlar ahli qabila-qabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu fan barq urib yashagan, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o'qitilgan, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag'rib-u mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g'ururlansak arziydi".

Respublikamizda islohotlarning birinchi bosqichida ko'rsatib o'tilganidek, "... Xalqlarning maonaviy - ruhiy holatini tiklash" uni yangilash, o'tmish avlodlarimizdan meros bo'lib qolgan madaniy boyligimizga ijodiy yondoshish, milliy

xususiyatlarimizga mos keladigan zamonaviy rang-baranglikni, milliy g'oyani joriy qilish mustaqilligimizning va zamonamizning talabidir.

Bizga ma'lumki, boy madaniy meros o'z-o'zidan yuzaga kelgan emas. U o'tmish jahon stivilizastiyasi madaniyatining ko'plab nafis qirralarini o'zida mujassamlashtira olganini tarixdan bilamiz.

Mamlakatimizda, o'tmish avlodlarimizning madaniy merosini asos qilib olgan holda, maonaviy yangilanish sari sobitqadamlik bilan borayotganligimizning boisi ham shunda. Bugungi kunda buyuk davltimiz poydevorini qurishda al-Beruniy, Ibn Sino, Muxammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, al-Buxoriy, at-Termiziy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimizning bebaho merosi katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, ularning g'oyalari, qarashlari mustaqil O'zbekistonning milliy mafkurasini shakllantirishda beqiyos muhimdir. Chunki yurtboshimiz taokidlaganidek: "mana shu o'zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lida aniq marralarni ko'zlab yashashimizda, pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy maonaviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos bu milliy g'oya, milliy mafkura bo'lishi shart".

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Milliy mafkura millatni birlashtiruvchi bayroqdir" - deb bekorga aytmagan. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek, "Milliy mafkuramiz birinchi navbatda xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, milliy qadriyatlarimizga, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'zida qamrab olgan holda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati va farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkor". Shu bois ushbu mavzuni o'rganish yoshlarimizda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, soxta g'oyalarga ergashib ketmaslikda katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998.
2. "Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o'rni" mavzuidagi xalqaro ilmiy konferenstiya materiallari. Samarqand, 1998.
3. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch" 2008y. T."O'zbekiston"
4. Ma'naviyat yulduzlari. T., 1999.
5. Baxodirov R. Iz istorii klassifikastii nauk na srednevekovom Vostoke. T., 2000.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T, 2000.
7. Abduqahhor Ibrohimov. Biz kim o'zbeklar. T, 2001.
8. Qur'oni Karim. Abdulaziz Mansur tarjimasi. T, 2001.

9. Abdulhay Abdurahmonov. Saodatga eltuvchi bilim I-II kitob. T, “Movarounnahr” , 2003.
10. Abdulhay Abdurahmonov. Saodatga eltuvchi bilim I-II kitob. T, “Movarounnahr” , 2003.
11. Islom ensiklopediyasi. T., 2004.
12. Abduqahhor Ibrohimov. Ma'mun akademiyasi. T, 2005.
13. Жумаева Нилуфар Ахматовна, БухДУ Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (10), 30-39.
14. Ahmadovna, J. N. (2022). QUYI ZARAFSHON VOHASI AHOLISINING YER-SUVDAN FOYDALANISH BILAN BOGLIQ AN'ANALARI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSH LARI). *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(3), 23-31.
15. Жумаева, Н. А., & Утаева, Ф. Х. ЗИРОАТЧИЛИК ҲОМИЙСИ-БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА АН'АНАЛАР. *ЎТМИШГА НАЗАР*, 49.
16. Джумаева, Н. А. (2023). Об Обычаях, Связанных Со Сбором Колосовых Культур В Бухарском Оазисе (Конец XIX Века, Начало XX Века). *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(3), 10-13.
17. Akhmatovna, D. N., & Bahriddinovna, T. G. (2020). Traditions related to harvesting grain crops in Bukhara region (The end of XIX century and the beginning of XX century). *Academy*, (6 (57)), 39-40.
18. Ahmadovna, J. N., Xolmamatovna, U. F., & Bahriddinovna, T. G. (2021). From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. *Central asian journal of social sciences and history*, 2(2), 74-80.
19. Ahmadovna, J. N., Xolmamatovna, U. F., & Bahriddinovna, T. G. (2021). From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. *Central asian journal of social sciences and history*, 2(2), 74-80.